Universitet Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi majlisi 11-sonli
bayonnomasiga
13-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universitetining 2025-2030-yillar uchun ko‘chmas mulk va ta’lim resurslari bo‘yicha strategiyasi

Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

Strategiya 2025-2030-yillar uchun Toshkent davlat yuridik universitetining ko‘chmas mulk va ta’lim resurslariga nisbatan strategik yondashuvi va ustuvorliklarini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

Toshkent davlat yuridik universitetining ko‘chmas mulk va ta’lim resurslari bo‘yicha strategiyasi uni 2030-yilgacha amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Strategiya quyidagilarni ta’minlashga qaratilgan:

universitetning moddiy va virtual infrastruktura hamda ta’lim resurslarini rivojlantirish orqali universitetni yanada rivojlantirish, uning xalqaro reputatsiyasini oshirish;

talabalar va xodimlarning ilg‘or darajadagi ta’limi va faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ta’minlash uchun zarur bo‘lgan o‘qitish, o‘rganish va tadqiqot muhitini yaratish.

Yuqoridagi vazifalarga erishish uchun quyidagi to‘rtta yo‘nalishda tegishli ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bunda har bir yo‘nalishning maqsad va vazifalari mavjud. Xususan, mazkur yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Ko‘chmas mulk va joylar.
2. Kutubxona resurslari va xizmatlari.
3. IT infrastruktura.
4. Ta’lim olish va o‘qitish texnologiyalari hamda raqamli platformalar.

Mazkur strategiya talabalar, professor-o‘qituvchilar va xodimlardan iborat keng ko‘lamdagi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan. Strategiya universitetning ko‘chmas mulk va ta’lim resurslariga doir boshqa ichki hujjatlari bilan birgalikda o‘qib chiqilishi zarur.

II bob. Ko‘chmas mulk va joylar

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

funksional, inkluziv va barqaror muhitni yaratish uchun kampus shart-sharoitlarini yaxshilaydi;

akademik yuksalish, ijtimoiy muloqot va salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi qo‘shimcha hududlarni ajratadi.

Strategik vazifalar.

Qo‘shimcha joylar ajratish. Universitet xodimlari uchun mehnat faoliyatini olib borish va talabalar uchun ta’lim olishda zarur yuqori darajadagi sharoitlarni saqlab turish bilan birga soni o‘sib borayotgan talabalarni qamrab olish maqsadida universitet kampusini qurish yoki qo‘shimcha binolarni olish.

Universitet kafeteriyasi va rekreatsion hududlar. Sifatli oziq-ovqat tanlovlarini taqdim etuvchi yangi kafeteriya inshootlarini qurish va ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlash. Xordiq chiqarish va kovorking maskanlarini kengaytirish, xususan, xodimlar uchun charchoqni yo‘qotishga yordam beruvchi maxsus xollarni va bino tashqarisidagi maydonni kengaytirish.

O‘quv auditoriyalarini kengaytirish. Soni o‘sib borayotgan talabalarni to‘liq qamrab olish uchun auditoriya sig‘imini kengaytirish.

Shart-sharoitlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash. Nogironlikka ega shaxslarni qo‘llab-quvvatlash uchun panduslar, maxsus hojatxonalar va liftlar, shuningdek ko‘zi ojiz talabalar uchun taktil yo‘llarni qurishga ustuvorlik berish.

Energiya samaradorligi va barqarorligi. Universitetda iqlimni muhofaza qilishga yanada e’tibor qaratish va bu orqali uglerod neytral universitetga aylanish. Barqarorlik tamoyillariga muvofiq keluvchi xaridlar orqali chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitga zarar keltirmaydigan kampusni barpo etish.

III bob. Kutubxona resurslari va xizmatlari

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

hamkorlikda ta’lim olish va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida kutubxona shart-sharoitlarini yaxshilash va zamonaviy standartlarga javob beradigan kutubxona inshootini qurish;

turli o‘quv grafigi asosida tahsil olayotgan talabalar uchun kutubxonadan inkluziv tarzda foydalanish imkoniyatini oshirish.

Strategik vazifalar.

Elektron resurslar bazasi va o‘quv materiallaridan masofaviy foydalanish. Kutubxona foydalanuvchilariga elektron xizmatlarni zamonaviy va samarali tarzda ko‘rsatilishiga erishish uchun kutubxona xizmatlarini avtomatlashtirish. Elektron kitoblar, jurnallar va boshqa o‘quv materiallaridan uzluksiz foydalanish imkonini beruvchi kutubxona faoliyatini to‘liq raqamlashtirish. Talabalar va professor-o‘qituvchilarga masofadan turib adabiyotlardan foydalanish imkonini beruvchi individual profillarni yaratish.

Kutubxona ish vaqtini uzaytirish. Kutubxona ish vaqtini barcha talabalarning grafigi doirasida ta’lim olishlari uchun moslashtirish uchun uzaytirish. Bunda kutubxona shtatlari sonini moslashtirish, kun-tun ish jadvali ishlab chiqish, kechgi va tungi navbatchilik uchun mehnatga haq to‘lashni e’tiborga olish.

Qo‘shimcha zonalarni yaratish. Kutubxonada individual va hamkorlikda ishlash uchun quyidagi zamonaviy jihozlangan zonalar ajratish:

individual tarzda o‘qish va ishlash uchun izolyatsiyalangan kabinalar;

jamoaviy ishlash uchun kichik zona yoki xonalar;

akademik tadbirlar o‘tkazishga mo‘ljallangan zal;

kovorking maydon (zona);

poligrafiya va qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish maydonlari;

bolalar maydonchasi;

shaxsiy (mobil) telefondan foydalanish punktlari;

“bookcafe” tashkil etish.

IV bob. IT infrastruktura

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

auditoriya sharoitida hamda onlayn ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan barqaror, xavfsiz va foydalanish oson bo‘lgan raqamli muhitni yaratish;

ta’lim resurslaridan masofadan, shu jumladan, mobil telefon orqali foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun IT xizmatlari va dasturlarini kengaytirish.

Strategik vazifalar.

Internet va ichki tarmoqni yaxshilash. Internet tezligi va ishonchliligini oshirib borish, qo‘shimcha kompyuter laboratoriyalarini ochish va yangi zamonaviy uskunalarni o‘rnatish uchun sarmoya kiritish.

Kiberxavfsizlik va dasturiy ta’minot. Universitet ma’lumotlarini himoya

qilish va raqamli ta’lim muhitini yaxshilash uchun litsenziyalangan, xavfsiz dasturiy ta’minot va antivirus dasturlariga sarmoya kiritish.

Mobil qurilmalar orqali dasturlardan foydalanish imkoniyati. Mobil qurilmalarda dasturlarning moslashuvchanligini oshirish orqali tizim va ta’lim resurslaridan masofaviy foydalanish imkoniyatini yanada yaxshilash maqsadida IT xizmatlari va dasturiy ta’minotni kengaytirish.

V bob. Ta’lim olish va o‘qitish texnologiyalari hamda raqamli platformalar

Maqsad.

2030-yilga qadar universitet:

Ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish, talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish va davomli assessmentni tashkil etishni osonlashtirishga qaratilgan texnologiyadan foydalanish.

Strategik vazifalar.

Virtual ta’lim vositalari. Virtual ta’lim platformasini talabalar bilimini baholash, qo‘shimcha video va audio darslar kontenti hamda talabalarning o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish funksiyasini qo‘shish orqali yanada takomillashtirish.

Ta’lim resurslarida inklyuzivlik. Nogironlikka ega talabalar, xususan, disleksiya yoki autizmga ega talabalar uchun virtual ta’limning inkluzivligini kafolatlash maqsadida maxsus ta’lim vositalarini integratsiya qilish.

Masofaviy muloqot va qo‘llab-quvvatlash. Professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida doimiy onlayn konsultatsiyalar, seminar va interaktiv uchrashuvlar tashkil etish.

VI bob. Strategiyani amalga oshirish va monitoring qilish

Universitet kengashi mazkur strategiyani amalga oshirish bo‘yicha umumiy javobgarlikka ega.

Strategiyada nazarda tutilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, uning ijrosini ta’minlash va monitoring qilish O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi, Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi, shuningdek quyidagi ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar zimmasiga yuklatiladi:

1. Ko‘chmas mulk va joylarni ajratish bo‘yicha vazifalar – Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi va Ekspluatatsiya va ta’mirlash boshqarmasi.

2. Kutubxona resurslari va xizmatlari – Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi va Axborot-resurs markazi.

3. IT infrastruktura – Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi va Elektron universitet bo‘limi.

4. Ta’lim olish va o‘qitish texnologiyalari hamda raqamli platformalar – O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi va Elektron universitet bo‘limi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar mazkur strategiyaning o‘z faoliyatiga taalluqli qismi bilan bog‘liq maqsad va vazifalarga erishish uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Chora-tadbirlar loyihalari tegishincha O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi, Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasiga muhokama qilish uchun taqdim etiladi.

Qo‘mitalar tomonidan muhokama qilingan va ma’qullangan loyihalar strategiyani amalga oshirishga qaratilgan yagona chora-tadbirlarga birlashtiriladi. Chora-tadbirlar tasdiqlash va keyinchalik nazorat qilib borish uchun Universitet kengashiga taqdim etiladi.

Universitet rektori mazkur strategiyada nazarda tutilgan qo‘shimcha joylarni ajratish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishga mas’uldir.

O‘qitish va ta’lim olish qo‘mitasi hamda Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi chora-tadbirlarning ijrosi ustidan monitoringni amalga oshirib boradi.

Chora-tadbirlar moliyaviy xarajatlarni nazarda tutgan taqdirda, universitetning xarajatlari smetasiga kiritiladi.

VII bob. Yakuniy qoidalar

Mazkur strategiya har uch yilda bir marotaba qayta ko‘rib chiqiladi hamda talab etilganda zarur o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.